

LINGVOKULTUROLOGIYANING BOSHQA LINGVISTIK FAN
TARMOQLARI BILAN INTEGRATSIYASI

Melsova Madinabonu

*Qarshi davlat universiteti Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi
2-bosqich magistranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada lingvokulturologiya va bu fan sohasining boshqa fanlar bilan aloqasi to'raligicha yoritilgan va integratsiyalashgan fanlar doirasida asosli va isbotlangan misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar. antroposentrik tilshunoslik, lingvokulturologik maktablar, sotsiolingvistika, fanlar integratsiyasi, etnolingvistika, lingvokulturema.

Kirish. aLingvokulturologiya antroposentrik tilshunoslikning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, XX asrning 90-yillarida jamiyatda til va madaniyat kesishgan nuqtani tahlil etuvchi va tilni madaniy fenomen sifatida o'rganuvchi fan sifatida maydonga keldi.

Bu fanning yaratilish tarixi nemis tilshunosi Vilgelm Fon Gumboldt bilan bog'liqdir. Uning fikricha til aloqa vositasi bo'lish bilan bir qatorda u dinamik tizim bo'lib, u xalqning o'ziga xos madaniy va falsafiy qarashlarini, madaniy qadriyatlarini o'zida aks ettiradi. XIX asrda Gumboldtning til va tafakkur munosabatlarini o'rganishda millat madaniyatiga asosiy e'tibor berilishi haqidagi mulohazalari XX asrning 90-yillarida qator tilshunoslar tomonidan yangi fan lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lib, ushbu fan hozirgi zamon tilshunosligida o'ta tez sur'atlarda rivojlanib, umumiy tilshunoslikda alohida o'rin egalladi.

Asosiy qism. Lingvokulturologiya xalq tilida iste'molda bo'lgan til birliklarning madaniy semantikasini, konnotativ mazmun- mohiyatini va milliy madaniyatning tilda ifoda etilishi muammolarini ilmiy va amaliy o'rganadi. Bu fan taraqqiy etgan sari rus tilshunoslari ham bu fan tarmoqlari bo'yicha o'z tadqiqotlarini olib bordilar.

Masalan, Maslovaning "Lingvokulturologiya" nomli monografiyasida mazkur fanning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan:

- ba'zi ijtimoiy guruhlarning etnosiga tegishli bo'lgan ayrim lingvokulturologik holatlar;

- diaxronik lingvokulturologiya, ya'ni ma'lum bir davrda muayyan xalqqa xos bo'lgan lingvokulturologik o'zgarishlar;

- o'zaro qardosh xalq tillarining lingvokulturologik xususiyatlarini qiyosiy jihatdan o'rganish;

- lingvokulturologik leksikografiya, ya'ni har bir mamlakat uchun lug'atlar tuzish;
Maslova nafaqat fanning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqadi balki XX asr

oxirida barpo etilgan lingvokulturologik maktablar haqida ham fikr bildiradi:

I. Y.S.Stepanov asos solgan lingvokulturologik maktab. O'z metodologiyasi bilan Emil Benvenist konsepsiyasiga yaqin turuvchi bu maktab vakillarining asosiy maqsadi madaniyat konstantini diaxron aspektida o'rganish hisoblanadi. Ular turli davrlarda yaratilgan matnlar mazmunini qiyoslagan holda tashqi ko'rinish jihatidan o'rganadilar va shaxs omili nuqtayi nazari e'tiborga olinmaydi.

II. N.D.Arutyunovna asos solgan maktab lingvokulturologiya fanining asosiy va universal atamalarini ishlab chiqqanlar. Bu maktab vakillari ham matnlar bilan tadqiqot olib borganlar va tahlil davomida matnlar turli xalqlar va zamonlarga tegishli bo'lgan.

III. V.N.Teliya asos solgan lingvokulturologik maktab "Moskva maktabi" nomi bilan nafaqat rus tilshunoslari orasida balki yevropa tilshunosligida ham mashhur bo'lgan. Teliya va uning shogirdlari Rossiya va chet ellardagi frazeologizmlarning lingvokulturologik tahlilini o'rganish bilan bir qatorda tilning asl mohiyatini til egasi nuqtayi nazaridan tadqiq etganlar. Tadqiqotlar natijasida ular til subyekti va madaniyati bevosita aloqadorlikda o'rganilishi kerakligini qayd etganlar. Bu maktab vakillarining asosiy konsepsiyasi A.Vejbitskayaning mental tilshunoslik qarashlariga yaqin turadi. Teliya til va madaniyat o'rtasida umumiy tomonlar mavjudligini unutmazlik lozim ekanligini ta'kidlaydi va quyidagi umumiyliklarni keltiradi:

-madaniyat xuddi til kabi inson dunyoqarashini aks ettiruvchi ong shaklidir.

-xalq madaniyati va tili bir-birini to'ldirgan tarzda o'zaro ta'sir munosabatida bo'ladi.

-til va madaniyatning asosiy subyekti shaxs va jamiyat, individ yoki ijtimoiy guruh hisoblanadi.

-til va madaniyat uchun umumiy xususiyat bu me'yoriylikdir.

-til va madaniyatning muhim belgisi bu tarixiylikdir.

-dinamika-statika ziddiyati til uchun ham madaniyat uchun ham bir xilda xosdir.

IV. Oxirgi lingvokulturologik maktab bu V.Vorobyov, V.Shaklenay va boshqalar tomonidan Rossiya universitetida yaratilgan lingvokulturologiya maktabidir. Bu maktab vakillari V.G.Kostomarov va YE.M.Vereshaginlarning lingvokulturologik konsepsiyalarini rivojlantirganlar.¹

Lingvokulturologiya tilshunoslikdagi yangi sohalardan biri bo'lsa-da, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, psixolingvistika, etnolingvistika, sotsiolingvistika, lingv oo'lkashunoslik, matn lingvistikasi kabi fanlar bilan ham chambarchas bog'liq va bu fanlarda o'zining muhim ahamiyatiga egadir. Lingvokulturologiya tilni madaniy meros sifatida o'rganib, boshqa lingvistik fanlar bilan integratsiyalashadi va til va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganishni yanada kengaytiradi. Ushbu

¹ Маслова В.А. Введение в лингвокультурологию. М., 1997.

integratsiyaning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

1. **SOTSIOLINGVISTIKA:** lingvokulturologiya sotsiolingvistika bilan integratsiyalashganda, tilning ijtimoiy muhitdagi o'рни va tilshunoslikning madaniy jihatlari chuqur tahlil qilinadi. Bu yondashuv tilning turli ijtimoiy guruhlar tomonidan qanday foydalanilishini va u orqali ifodalanayotgan madaniy qadriyatlarni aniqlashga yordam beradi. Masalan lingvokulturologiya maqollar va iboralarni lingvokulturemalar sifatida o'rganib, ularda aks etgan xalqning madaniy merosi va qadriyatlarini antroposentrik jihatdan tahlil etsa, sotsiolingvistika esa bu maqollarning turli ijtimoiy guruhlarda qanday qo'llanishini, ularning ijtimoiy holat yoki muloqot kontekstida qanday ta'sir qilishi haqida tadqiqot olib boradi. Misol tariqasida bir maqolni ham lingvokulturologik ham sotsiolingvistik jihatdan tahlil etib ko'ramiz: Qozonga yondashsang qorasi yuqar, Yomonga yondashsang yarasi yuqar. Bu maqolda ifodalangan qora rang kuchli falsafiy ma'noga egadir. Hammamizga ma'lumki, qozon qora bo'lishi uning yoniga borishimiz bilan qorasi yuqishi xuddiki hayotimizda yomon odamlarga qanchalik yaqin bo'lsak, ular ham bizga o'zlarining yomon ta'sirini shunchalik tez va ko'p o'tkazishlarini ko'chma ma'noda ifodalamoqda. Lingvokulturologiya fan sohasida maqollar ko'chma ma'nolari orqali tahlil etiladi shunda ko'zlangan maqsad to'liq amalga oshirilgan bo'ladi.

Sotsiolingvistik jihatdan bu maqolni turli yo'nalishlarda tahlil etish mumkin. Ijtimoiy kontekstda bu maqol ko'pincha yoshi katta insonlar yoki ota-onalar tomonidan farzandlariga nisbatan nasihat qilganda yoki ogohlantirganda qo'llaniladi. Maqolni kelib chiqishi o'zbek xalqining madaniy an'analari va ko'p yillik tajribalariga asoslanadi. Qozon-bu yerda ramziy ma'no kasb etib, zararli muhit yoki yomon ta'sirni anglatmoqda. Sotsiolingvistik tahlil ushbu ramziy ma'nolar va ularning til foydalanuvchilari orasida qanday shakllanligini ham o'rganadi.

2. **ETNOLINGVISTIKA:** Har ikki fan til va madaniyatning bir-biriga ta'sirini o'rganadi. Lingvokulturologiya tilda madaniy qadriyatlarni aks ettirsa, etnolingvistika ularning etnik guruhlar orasidagi tarqalishini va o'ziga xosligini tahlil qiladi. Etnolingvistika tarixiga nazar soladigan bo'lsak, uning ham Yevropada V.F. Gumboldtga, Amerika tilshunosligida esa F. Boas, E. Sepir, B. Uorfga borib taqalishini ko'rishimiz mumkin.

Turli xalqlarning tabu va e'tiqodlari ham aynan lingvokulturologiya va etnolingvistika kesishgan nuqtada o'rganiladi. Masalan ba'zi xalqlar orasida kundalik so'zlashuv paytida ma'lum so'z yoki iboralarni ishlatishdan qochish kabi odatlarni kuzatishimiz mumkin. Biz buni ko'pincha ovchilik bilan shug'ullanuvchi etnik guruhlar nutqida uchratishimiz mumkin ularning talqinicha hayvon nomlarini tog'ridan-to'g'ri aytish ularga ov oldidan omad keltirmaygina qolmay, biror-bir falokat ham olib kelishi mumkin. Boshqa tarafdin olib qaraganda, hayvon nomlarini aytmaslik ularga bo'lgan hurmatni ham ifodalaydi. Lingvokulturologiya bu holatlarni madaniy

muloqot doirasida ko'rib chiqsa, etnolingvistika bu tabularning etnik va tarixiy sabablarini o'rganadi.²

3. LINGVOO'LKASHUNOSLIK. Lingvokulturologiya lingvoo'lkashunoslikning davomchisi sifatida jamiyat hozirgi hayoti tomonidan ilgari surilgan madaniy qadriyatlarning yangi tizimiga, fakt va hodisalarning to'liq, obyektiv talqiniga va mamlakat madaniy hayotining turli sohalari haqidagi ma'lumotlarga qarab ish tutadi. Lingvoo'lkashunoslik lingvokulturologiyadan farqli ravishda, tildagi milliy realiyalarni o'rganadi va ularning qay tarzda ifoda etilayotganligini tahlil qiladi.³

Bu fanlarning asosiy farqlarini taqqoslaydigan bo'lsak, lingvoo'lkashunoslikning asosiy maqsadi tilning o'ziga xos xususiyatlarini boshqa madaniyatlar va davlatlarning kontekstida o'rganadi. Masalan, til geografiyasi, til va xalqning urf-odatlarini o'rtasidagi bog'liqlik shular jumlasidandir.

Lingvokulturologiyada til birliklarining ichki semantik-madaniy ma'nolarini tahlil etsa, lingvoo'lkashunoslikning diqqat markazida tilning tashqi omillar bilan aloqasi turadi.

Bu fanlarning amaliy qo'llanishi sinxronik jihatdan til o'rganishda, ayniqsa xorijiy tillarni o'rgatish jarayonida ham xalqning madaniyatini tushunish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birgalikda tilga xos mental xaritalar, ma'nolar va madaniy kodlarni ochib berish orqali milliy xususiyatlarni tushunishga yordam beradi. Lingvoo'lkashunoslik geolingvistika, lingvistik tahlil, xalqaro kommunikatsiya vositalarini o'rganish kabi qator yo'nalishlar bilan ham metodologik jihatdan aloqadordir.

Misol tariqasida ingliz tilidagi "pub" so'zini oladigan bo'lsak, bu so'zni lingvoo'lkashunoslik sohasi paydo bo'lish tarixini va bu tushunchaning hozirda geografik hududlarning ijtimoiy hayotida qanday o'rin tutishini tahlil etadi.

Lingvokulturologiya esa bu so'zni faqatgina joylashuv o'rniga ko'ra emas, balki bu so'z jamiyat madaniyatida yoki insonlar ongida qanday ma'no anglatishiga qarab tahlil etadi. "Pub" so'zi insonlar ongida do'stlik, muloqot va dam olish joyi kabi assotsiativ bog'lanishlarni shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda har bir xalq o'z dunyoqarashi, ongi va madaniyatini o'z ona tili orqali ifoda etadi. Til va madaniyat bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lib, ular kesishgan nuqtalarda fanlar integratsiyasi hosil bo'ladi va tilni ichki jihatdan, tashqi jihatdan ham har tomonlama tahlil etib o'rganish uchun yetarlicha asosli ma'lumotlar

² D. Xudoyberganova Matn yaratilishining antroposentrik talqini. O'zbek tili va adabiyoti jurnali . 2011. №6.

³ M. Саидова, У. Кузиев. Лингвокультуроология. Наманган. 2017.

hozirgi kunda mavjuddir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Маслова В.А. Введение в лингвокультурологию. М.,1997.
2. D.Xudoyberganova Matn yaratilishining antroposentrik talqini. O'zbek tili va adabiyoti jurnali . 2011. №6.
3. Mahmudov.N 'Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab' ."O'zbek tili va adabiyoti" jurnali.2012 №5.
4. M.Saidova, U.Kuziev. Лингвокультурология. Наманган.2017.